



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасва Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдулаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхураевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Лазизахон Алиджанова</b> БЕРУНИЙНИНГ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИККА ОИД ИЛМИЙ ЁНДАШУВИ.....	5
<b>2. Шоҳрух Гулбаев</b> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ТЎХОРИСТОН.....	9
<b>3. G‘ulom Djumamurotov</b> XVIII ASR VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IQTISODIY ALOQALARI.....	13
<b>4. Bahodir Isakov</b> O‘ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MEROSNING O‘RNI.....	20
<b>5. Parvina Ismoilova</b> TURKISTONGA RUS BANKLARINING KIRIB KELISHI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI).....	24
<b>6. Икрамжон Исмаилов</b> ЎЗБЕКИСТОНДА ХАЛҚАРО АНДОЗАЛАРГА МОС КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ БОРАСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй.).....	29
<b>7. Парвиз Магеррамов</b> ВЗАИМООТНОШЕНИЯ АЗЕРБАЙДЖАНА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ОБЛАСТИ ТРАНСПОРТА.....	37
<b>8. Sayyora Turayeva</b> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MINTAQASIDA XORIJIY JAMIYATLARINING KONCHILIK SOHASIGA KIRIB KELISHI TARIXIDAN.....	44
<b>9. Дмитрий Епифанов</b> ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА НА ПРИМЕРЕ CHATGPT.....	55
<b>10. Зебунисо Саидова</b> ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ ЁШ-ЖИНСИЙ ТАРКИБИ ДИНАМИКАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР).....	65
<b>11. Nishona Hasanova</b> MARKAZIY OSIYODA BOG‘-XIYOBON SAN’ATI VA CHORVACHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI.....	74
<b>12. Ўткиржон Хошимов</b> ҚАЙТА ҚУРИШ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЛМ-ФАН СОҲАЛАРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	79



**Sayyora Rustambayevna Turayeva,**  
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,  
tarix fanlari doktori (DSc), professor

## **XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MINTAQASIDA XORIJIY JAMIYATLARNING KONCHILIK SOHASIGA KIRIB KELISHI TARIXIDAN**

**For citation:** Sayyora R.Turaeva. FROM THE HISTORY OF THE ARRIVAL OF FOREIGN COMPANIES IN THE MINING INDUSTRY OF THE TURKESTAN REGION AT THE END OF THE XIX – BEGINNING OF THE XX CENTURY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 3, pp.44-54

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132833>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasida XIX asr oxiri – XX boshlarida konchilik sohasiga Rossiya sarmoyasi asosida kirib kelgan “Farg‘ona nodir metallarni qazib olish aksiyadorlik jamiyati”, “Turkiston ko‘mir sanoatining Markov aksiyadorlik jamiyati”, “Markov aksiyadorlik jamiyati”, “Turkiston ko‘mir sanoati”, “Sulukta ko‘mir” A.M., “Verbov va K<sup>o</sup>” kabi jamiyatlar hamda ingliz sarmoyasi asosida tashkil etilgan Farg‘onadagi “Chimyon” va “Santo” (“O‘rta Osiyo neft qazish va savdo jamiyati”), “Moylisoy” jamiyati kabilarning foydali qazilma boyliklarni qazib olish ishlarini rivojlantirishdagi o‘rni o‘rganilgan. Turkiston o‘lkasidagi xorijiy sarmoyadorlar ham tog‘-kon ishini rivojlantirishda hissa qo‘shganligi haqida ma‘lim bir tasavvurlar beruvchi hujjatlar tahlil qilingan. Ushbu shirkatlar rangli va nodir metallar, yoqilg‘i mahsulotlari kabi ma‘danlarni savdosida ma‘lum mavqega ega bo‘lganligi va Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qilishi ko‘zda tutilganligi tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** aksionerlik jamiyati, ko‘mir konlari, neft, nodir metallar, rangli metall, sarmoya, ustav, ingliz sarmoyasi, konda qidiruv ishlari.

**Сайёра Рустамбаевна Тураева,**

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан,  
доктор исторических наук, профессор

## **ИЗ ИСТОРИИ ПРИХОДА ИНОСТРАННЫХ КОМПАНИЙ В ГОРНОРУДНУЮ ОТРАСЛЬ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается роль таких компаний, как «Ферганское акционерное общество по добыче редких металлов», «Марковское акционерное общество Туркестанской угольной промышленности», «Марковское акционерное общество», «Туркестанская угольная промышленность», «Сулукта уголь» А.М., «Вербов и К<sup>o</sup>», которые вошли в горнодобывающую промышленность Туркестанского края в конце XIX — начале XX вв. на

основе русских инвестиций, а также компаний «Чимён» и «Санто» («Среднеазиатское нефтяное разведывательное и торговое общество») и «Мойлисой» в Фергане, которые были созданы на основе английских инвестиций, в развитии добычи полезных ископаемых. Проанализированы документы, дающие представление о вкладе иностранных инвесторов в развитие горнодобывающей промышленности Туркестанского региона. Было установлено, что эти компании занимали определенное положение в торговле полезными ископаемыми, такими как цветные и редкие металлы, а также топливными продуктами, и были призваны обслуживать интересы Российской империи.

**Ключевые слова:** акционерное общество, угольные шахты, нефть, редкие металлы, цветные металлы, инвестиции, устав, английские инвестиции, геологоразведка.

**Sayyora R. Turaeva,**

University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of History (DSc), professor

## FROM THE HISTORY OF THE ARRIVAL OF FOREIGN COMPANIES IN THE MINING INDUSTRY OF THE TURKESTAN REGION AT THE END OF THE XIX – BEGINNING OF THE XX CENTURY

### ABSTRACT

The article examines the role of such companies as the Fergana Joint-Stock Company for the Extraction of Rare Metals, Markov Joint-Stock Company of the Turkestan Coal Industry, Markov Joint-Stock Company, Turkestan Coal Industry, Sulyukta Coal A.M., Verbov and Co., which entered the mining industry of the Turkestan region in the late 19th - early 20th centuries on the basis of Russian investments, as well as the companies Chimyon and Santo (Central Asian Oil Exploration and Trading Company) and Moillisoy in Fergana, which were created on the basis of English investments, in the development of mineral extraction. The documents that provide an idea of the contribution of foreign investors to the development of the mining industry of the Turkestan region are analyzed. It was established that these companies occupied a certain position in the trade of minerals, such as non-ferrous and rare metals, as well as fuel products, and were called upon to serve the interests of the Russian Empire.

**Index Terms:** joint stock company, coal mines, oil, rare metals, non-ferrous metal, investment, charter, English investment, mining exploration.

### 1. Dolzarbligi:

Buxoro, Xiva, Qo‘qon hududi Rossiya imperiyasi mustamlakasi tasarrufiga o‘tgach, bu yerda kon-qidiruv ishlari faollashdi va bu borada Turkiston general-gubernatorligi ma‘muriyati qizg‘in faoliyat olib bordi. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi rus sanoati uchun boy xom ashyo manbalariga hamda tayyor mahsulotlarni sotish uchun bozorga ega bo‘lish imkoniyatlarini ochdi.

Turkistonda foydali qazilmalardan neft (Farg‘ona vodiysida), temir (Samarqand viloyati va Boysunda), mis (Qo‘qon uyezdi va Sho‘rsuvda), osh tuzi (Farg‘ona va Surxon vohasida) olinar, shuningdek, o‘lkada rangli metallar, glauber tuzi, toshko‘mir va boshqa foydali qazilma konlari mavjud edi.

Bu davrda o‘lka boyliklarini imperiya manfaatlariga yo‘naltirish, yangi-yangi tabiiy boylik manbalarini izlab topishga harakat qilindi. Bu ishda hukumat tomonidan uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar bilan bir qatorda geologiyaga oid jamiyatlar ham faol qatnashgan.

### 2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqolada manbalar tahlili, ilmiy qarashlar va yondashuvlar qiyosiy tahlili, tarixiy ma‘lumotlarni umumlashtirish va xolislik tamoyili, germenevtika usullaridan foydalanildi.

XX asr boshlarida Turkiston xonliklari oltin qazib olishni o‘rganishning tarixiy va geologik jihatlari A.F.Gubarevich-Radobilskiy, tog‘-kon muhandislari L.Mixaylov, D.V.Nalivkin,

sharqshunos tarixchi A.A.Semenov asarlarida yoritilgan[1]. XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Buxoroning chor Rossiyasi tarkibiga kirishi munosabati bilan uning mustamlaka hududlaridagi minerallariga qiziqishi ortdi. A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, V.P.Nalivkin, D.L.Ivanovna, V.Seversov, D.Putyata, N.L.Korjenevskiy, I.A.Preobrajenskiy, G.A.Shpilko, G.E.Grumm-Grjimaylo kabi tadqiqotchilarning asarlarida Pomir geologiyasi haqida umumiy tasavvur berish bilan birga o'zlari topgan ba'zi foydali qazilmalar konlari, ularga transport boradigan yo'llar tizimi qisman ishlab chiqildi. Shu tarzda Pomirni tizimli ravishda o'rganish boshlandi. I.V.Mushketov, D.G.Romanovskiy[2], Amudaryo quyi oqimi atrofidagi qumli hududlarni o'rganishda olimlardan P. Doroshin[3], N.I.Barbota-de-Marni[4], A.M.Konshin[5], A.V.Kaulbars[6], V.A.Obruchyev[7], Gedroys[8], I.V.Mushketov[9] tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Tarixdan ma'lumki, Amudaryo qadimda Kaspiy dengizga quyilgan va keyinchalik o'zanini o'zgartirib, Orol dengiziga quyilgan. Ushbu daryoning oqib o'tgan izlari bo'ylab ham tadqiqotlar olib borilgan[10].

1901-1917-yillarda tog'-kon muhandislari V.Veber, A.Ragozina, K.P.Kalitskiy, N.V.Verxovskiy, A.Gubarevich, V.N.Radobilskiy, V.I.Masalskiy, S.I.Gulishambarov, V.N.Ogloblin, A.Korzuxin, V.V.Zaporskaya va K.A.Aleksander, G.A.Leonov, A.Padurovskiy, P.P.Ivanov, I.Limarev va boshqalarning ishlari chop etilgan[11].

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, tog'-kon ishlari va uning tarixini o'rganishni S.F.Mashkovsev, M.E.Masson, B.N.Nasledov va boshqalar davom ettirganlar.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Ma'lumki, "Farg'ona nodir metall qazib olish jamiyati" nomidagi xususiy jamiyat tarixiy manbalarga ko'ra, Birinchi jahon urushi boshlangunga qadar faoliyat yuritgan[12].

Rossiya imperiyasi hukumati tashabbusi bilan 1899-yilda qurib bitirilgan O'rta Osiyo temir yo'li bo'ylab rus tadqiqotchilari ko'plab geologik izlanishlarni amalga oshirganlar. Ulardan biri advokat va tadbirkor V.A.Spechevga tegishli bo'lib, u Tuyamo'yin mis konini tadqiq etgan. V.Spechev mahalliy aholi yordamida topilgan ushbu kondan ruda namunalari to'plagan, ular orasida uran minerallari ham bo'lgan. V.A.Spechevning qarindoshlari namunalarni Toshkentga yetkazib berganlar va Turkistonga jo'natilgan Geologiya qo'mitasi kimyogari B.G.Karpovga topshirganlar. O'z navbatida, B.Karpov ushbu namunalarni Sankt-Peterburgga yetkazib bergan.

Moskva texnologiya institutining metallurgiya laboratoriyasida professor I.A.Antipov va B.G.Karpov ruda tadqiqotlarini olib borib, namunalarda uran borligini analitik usulda aniqlagan. I.A.Antipov 1900-yilda Peterburg mineralogiya jamiyatining yig'ilishida ushbu kashfiyotning tavsifini keltirib, Rossiyada eng noyob narsa – uran birikmalari topilganini, B.G.Karpov yetkazib bergan mineral boy uran rudasi sifatida katta qiziqish uyg'otganini aytib o'tgan[13].

1904-yilda X.I.Antunovich konda qidiruv ishlarini boshlagan. Bu ishlar muvaffaqiyat bilan amalga oshirilishi natijasida 1907-yilda "Farg'ona nodir metallarni qazib olish jamiyati" xususiy korxonasi tashkil qilinib, shu yili birinchi ruda qazib olingan. 1908-yilda Sankt-Peterburgdagi kompaniya ushbu kondan olinadigan uran-vanadiy rudasini qayta ishlash bo'yicha tajriba zavodini ishga tushirgan.

1904-yilda kon muhandisi X.I.Antunovich razvedka ishlarini, shu jumladan olmosli burg'ulashdan foydalanishni boshlagan. 1907-yildan 1913-yilgacha Tuyamo'yin uran-vanadiy koni "Farg'ona nodir metallarni qazib olish aksiyadorlik jamiyati" tomonidan boshqarilgan bo'lib, Sankt-Peterburgda uning ushbu rudani qayta ishlash zavodi bo'lgan. "Farg'ona nodir metall qazib olish jamiyati" faoliyati davrida 820 tonna ruda qazib olingan, shundan 655 tonnasi Sankt-Peterburgga yuborilib, bu yerda qayta ishlangan uran va vanadiy preparatlari Germaniyaga eksport qilingan[14]. 1914-yilda Moskva radiy ekspeditsiyasi tashkil etilgan va uni sanoatchi P.P.Ryabushinskiy moliyalashtirgan. Tuyamo'yin konini o'zlashtirish yer osti usuli bilan amalga oshirilgan. Kon yopilganda uning chuqurligi 220 metr dan oshgan edi.

O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan "Farg'ona nodir metallar qazib olish jamiyati" ustavi, ya'ni nizomi 1908-yil 4-iyulda Rossiya imperatori tomonidan Petergofda tasdiqlangan[15]. Umuman, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda konchilik sohasida tashkil etilgan shirkatlar o'z ustav-nizom hujjatiga ega bo'lib, jamiyat faoliyatiga tegishli barcha masalalar unda o'z aksini topgan.

Konchilik nizomida mazkur jamiyat asoschisi, qaysi foydali qazilma boyliklarini qazib olishga ixtisoslashganligi, konchilik ishlarini olib borish hududi va o'lchamlari, maqsadi, huquq va burchlari o'z aksini topgan. O'rta Osiyoda tog'-kon ishi, foydali qazilma boyliklarini qazib olish va uning savdosi bilan shug'ullanadigan shirkatlar nizomi haqidagi ilk ma'lumotlar 1870-yilga tegishli ekanligi aniqlandi. Xususan, hujjatlar orasida "Turkiston general-gubernatorligi hududida xususiy oltin ishlab chiqarishga ruxsat etilishi" xususidagi yangi ustav mavjud bo'lib[16], uning nomiga "yangi" so'zining qo'shib qo'llanilishi ushbu soha bo'yicha 1870-yildan oldin ham nizomlar bo'lgan, deb xulosa qilishga asos bo'ladi.

"Farg'ona nodir metallarni qazib olish jamiyati"ning nizomi 77 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida keltirilishicha: "Mis va u bilan bog'liq noyob va boshqa nodir metallar va minerallarni qazib olish uchun tog'-kon muhandisi X.I.Antunovich tomonidan Farg'ona viloyatidagi "Tuyamo'yin" va "Jilbuloq" hududlarida "Farg'ona nodir metallarni qazib olish jamiyati" nomi bilan aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan"[17].

Nizomning 2-moddasida kon ishlari olib boriladigan maydon o'lchami aniq ko'rsatilgan. X.I.Antunovichga 1907-yil 28-sentyabrdagi 857-sonli hujjatlarga muvofiq Turkiston kon okrugining okrug muhandisi sifatida qator shart, majburiyat va huquqlar beriladi. Mazkur ustav jamiyat faoliyatini asosiy tartibga soluvchi hujjat bo'lib, uning 6-moddasida jamiyat hayotidagi yangiliklar "Davlat byulleteni", "Moliya byulleteni", "Sanoat va savdo", poytaxtlarning bayonotlari, "Turkestanskije vedomosti" va "Sankt-Peterburg shahar ma'muriyati va metropoliten politsiyasining vedomosti" kabi nashrlarda chop etib borilishi zarurligi ko'rsatilgan edi.

"Farg'ona nodir metallarni qazib olish jamiyati"ning umumiy sarmoyasi 450 ming rublni tashkil etib, 4500 aksiyaga bo'lingan va har bir aksiya 100 rubldan iborat bo'lgan[18]. Agar ushbu jamiyat o'zining asosiy umumiy sarmoyasini ko'paytirishni istasa, nizomga muvofiq, savdo va sanoat vazirligidan ruxsat olishi ko'zda tutilgan.

Jamiyat nizomining 3-moddasida mahalliy hududda ishlash, yashash yoki mulkka ega bo'lishi taqiqlangan xorijiy fuqarolar va yahudiylarga Rossiya qonunchiligiga asoslanib kon ishlarida qatnashish huquqi berilishi yoki berilmasligi lozimligi uqtirilgan[19].

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, bu davrda tog'-kon sohasida amalga oshirilgan barcha ijobiy o'zgarishlar Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. "Farg'ona nodir metallarni qazib olish jamiyati" qisqa vaqt (1908-1918-y.) faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, Farg'ona vodiysidagi "Tuyamo'yin" va "Jilbuloq" konlaridan nodir metallar va foydali ma'danlarni qazib olishga xizmat qilgan. Bu yerdagi uran, vanadiy, radiy kabi radioaktivlik xossasiga ega bo'lgan kimyoviy elementlar koni Rossiya imperiyasining mustamlaka hududlaridagi dastlabki konlardan bo'lib, o'zining ilk va ilg'or tajribasiga ega bo'lgan.

Ushbu jamiyat Turkiston o'lkasi geologiyasini rivojlantirishda o'ziga xos o'rin tutgan. Ma'lumki, Rossiya mustamlakachiligi davrida o'lkadagi yer osti boyliklarining ba'zi nodir metallarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, nodir metallardan uran rudasi qatlamlari hamda radiy saqlovchi rudalar Rossiya imperiyasining mustamlakasi bo'lgan hudud, o'rta asrlarda xitoyliklar tasarruf etgan, ammo keyinchalik tashlandiq holga kelgan kon Farg'ona vodiysining Tuyamo'yin deb atalgan hududidan topilgan. Ushbu jamiyat Germaniya bilan eksport munosabatlarini o'rnatgan va uran (radiaktiv kimyoviy element) va vanadiy (kimyoviy element, metall) ma'danlarini tashqi bozorga olib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Ko'pgina tarixiy manbalarda mahalliy aholi "Farg'ona nodir metallarni qazib olish jamiyati"ni Tuyamo'yin konidan mis olishga ixtisoslashgan deb bilganligi tasdiqlangan. Ammo, tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, mazkur jamiyat nafaqat mis, balki uran, vanadiy, radiy (radioaktivlik xossasiga ega bo'lgan kimyoviy element)[20] kabilarni ham qazib olish bilan shug'ullangan.

Ularni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan texnologiya (xlorid kislota bilan rudani qayta ishlash) radiy bariy bilan birga "Farg'ona nodir metallarni qazib olish jamiyati" omborlarida ishlatilmagan va to'planib qolgan suyuq "qoldiq"qa aylantirgan. Birinchi jahon urushidan oldingi yillarda Rossiya Fanlar akademiyasining A.P.Karpinskiy, V.I.Vernadskiy va boshqa olimlari, radioaktiv xom ashyoni o'z ichiga olgan mahalliy minerallarni, shu bilan birga Tuyamo'yin rudalarini o'rganishni boshlaganlar. O'zining "ishlab chiqarish sirlarining fosh etilishidan"

bezovtalangan “Farg‘ona nodir metall qazib olish jamiyati” qarshiliklariga qaramay, ushbu olimlar tadqiqotlarini davom ettirganlar.

O‘z davrining ko‘plab manbalarida Farg‘ona vodiysidagi Tuyamo‘yin radiy koni[21] haqida ma‘lumotlar mavjud. Bu davrda Rossiyada dastlabki radiy kimyoviy elementini olishga urinishlar boshlangan edi. Jumladan, Derpt (hozirgi Tartu) universiteti bitiruvchisi V.A.Borodovskiy (1878-1914-y.) 1911-yilda “Farg‘ona nodir metall qazib olish jamiyati” dan 5 kg radioaktiv qoldiqlarni olishga muvaffaq bo‘lgan. U tahlilni yarim hunarmandchilik sharoitida ishlab chiqib, ularning tarkibini to‘liq tahlil qilgan. Manbalarning guvohlik berishicha, 1912-yil oxirida olim qorong‘ida porlashi mumkin bo‘lgan ma‘danni ajratib olgan. V.A.Borodovskiy o‘zi bilan, cho‘ntagida doimo ma‘dan solingan ampulalarni olib yurgan. U og‘ir kasal bo‘lib, Italiyaga davolanishga jo‘natilganida ham bu ampulalarni qo‘ldan qo‘ymagan. 1914-yilning 28-yanvarida vafot etgan. V.A.Borodovskiyning o‘limiga radiatsiya sabab bo‘lganiga olimlar shubha qilmaganlar. Olim saqlagan ampula esa yo‘qolgan[22].

Rus olimlari radiaktiv preparatlarni ishlab chiqarish sohasini yo‘lga qo‘yish zarur ekanligini anglab yetgan, buning uchun maxsus zavod qurilishi boshlab yuborilgan edi. 1917-yilda urush harakatlari bu ishlarni to‘xtatib qo‘ygan. Biroq, harbiy mudofaa ehtiyojidan kelib chiqib, radiy va uranni qidirish ishlariga kirishilgan. Fanlar Akademiyasi Rossiyadagi tabiiy ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash uchun maxsus komissiya tuzgan. Bu ishga eng mashhur olimlardan V.I.Vernadskiy, I.P.Pavlov, N.S.Kurnakov, A.P.Karpinskiy, A.E.Fersman kabilar jalb etilgan. Ularning tarkibiga keyinchalik I.Ya.Bashilov ham kirgan. I.Ya.Bashilov (1892-1953-y.) endigina, 1902-yilda asos solingan, Peterburg politexnika institutining metallurgiya bo‘limini bitirib, 1917-yildan uran rudasi qatlamlari hamda radiy saqlovchi rudalar bo‘yicha ilmiy izlanishlarini boshlagan edi.

1919-yil I.Ya.Bashilov Shimoliy Uraldagi Berezniy zavodiga xizmat safariga yuboriladi. U yerda Petrograddan avvalroq yuborilgan radiaktiv xom ashyo zaxirasiga, ya‘ni sobiq “Farg‘ona nodir metall qazib olish jamiyati” dan musodara etilgan[23] mahsulot saqlanayotgan joyga kelgan va ilmiy izlanishlarini davom ettirgan. Demak, “Farg‘ona nodir metall qazib olish jamiyati” tugatilishidan oldin hududdan qazib olingan xom ashyolar Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan musodara etilgan.

Manbalar o‘rganilayotgan davrda Turkiston hududidagi boshqa ko‘plab jamiyatlar ham tog‘-kon sohasida faoliyat olib borganligidan dalolat beradi. Shulardan biri Farg‘onadagi neft sanoatiga tegishli “Chimyon” aksiyadorlik jamiyati edi. O‘z MA jamg‘armalarida ushbu jamiyat to‘g‘risida ham ma‘lumotlar uchraydi. Jamiyatning ustavi 1904-yilda Toshkentda tasdiqlangan. Rossiya imperiyasi iqtisodiyoti uchun mintaqadagi muhim hududlardan biri bo‘lgan Farg‘ona vodiysi yer usti va yer osti tabiiy qazilma boyliklariga boy bo‘lib, viloyatdagi neft, ko‘mir va oltingugurt qazib olish va qayta ishlash, shuningdek ulardan olinadigan mahsulotlar bilan savdo qilish uchun “Farg‘ona neft va tog‘-kon aksionerlik jamiyati” tashkil etilgan va u “Chimyon” deb nomlangan. Jamiyatga temir yo‘l muhandisi A.N.Kovalevskiy, uning rafiqasi S.A.Kovalevskaya va nafaqadagi artilleriya sud ijrochisi A.K.Xrushchev asos solganlar[24].

1914-yilda o‘lkada konchilik sohasiga tegishli yana bir jamiyat –“Turkiston ko‘mir sanoatining Markov aksiyadorlik jamiyati” ish boshlagan va uning ustavi qabul qilingan[25].

“Markov aksiyadorlik jamiyati” “Turkiston ko‘mir sanoati” degan yangi nom ostida “Sulukta ko‘mir” A.M. “Verbov va K” jamiyati bilan sheriklik asosida Samarqand viloyati, Xo‘jand tumani, Isfani volosti, Qorabuloq qishlog‘ida, Tangaboshi hududida, Sulukta darasining janubida joylashgan va umumiy maydoni taxminan 156 desyatnaga teng bo‘lgan 3 ta maydonda joylashgan ko‘mir konlarini ijaraga olgan. Boshqa hududlarda ham jamiyatga tegishli konlar bo‘lganligi, ularning mulklari, huquqlari, birgalikda amalga oshiriladigan ish rejalari kabi masalalar arxiv hujjatlarida keltirilgan. Shuningdek, konchilik infratuzilmasini rivojlantirish, Turkiston o‘lkasi, Buxoro va Xiva xonliklari hududida yangi sanoat korxonalari ochish kabi vazifalar ham jamiyat rejalariidan o‘rin olgan[26].

“Turkiston ko‘mir va kon sanoati jamiyati”ning ustavi[27] 1905-yil 25-iyunda Samarqandda qabul qilingan. Unda jamiyatning maqsadi va vazifalari, shuningdek, uning faoliyatiga tegishli

masalalar yoritilgan. Jamiyatga, shuningdek, Samarqand viloyatining Qo'shtut volostida ko'mir qazib olish, koks, briket va boshqa ko'mir mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ko'mir va ko'mir mahsulotlarini sotish imkoniyatlari berilgan.

XIX asrning 70-80-yillarida neft mahsulotlarining ikki xili: kerosin (eng yaxshi yoqilg'i vositasi sifatida) hamda mazut (bozorbop yoqilg'i sifatida) juda qadrlanar edi. Bu davrda neft ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Aka-uka Nobellar" shirkati Rossiya va Turkiston yoqilg'i tarmog'ida hukmron mavqeni egalladi. Mazkur shirkat Rossiya bozoridan Amerika kerosinini "siqib chiqarishga" muvaffaq bo'lgan va Yevropa bozorida Amerika neft kompaniyalari bilan jiddiy raqobatlasha boshlagan edi. Garchi, asosan chet el moliyaviy sarmoyasiga tayangan, nemislar va fransuzlarning ulushi katta bo'lgan "Chimyon" va "Santo" ("O'rta Osiyo neft qazish va savdo jamiyati") kompaniyalari Turkistonda neft olish va uni qayta ishlash bo'yicha yirik kompaniyalar hisoblangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan "Chimyon" kompaniyasi "Aka-uka Nobellar" monopolistik birlashmasining ta'sir doirasiga tortila boshlandi va 1910-yilga kelib unga butunlay qaram bo'lib qoldi.

O'lkaning tabiiy boyliklariga egalik qilish borasidagi raqobat shu tariqa uzluksiz xarakter kasb etib bordi. Jumladan, Farg'onadagi "Moylisoy" jamiyati Turkiston neft bozorida ma'lum mavqega ega edi. "Santo"dan farqli o'laroq, bu jamiyat o'z taqdirini ingliz sarmoyasi bilan bog'lagan bo'lib, unga keng huquqlarga ega bo'lgan vakolatli ingliz agenti rahbarlik qilar edi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi qonunlariga ko'ra, "Moylisoy" jamiyatida rus fuqarolarining rahbarlik maqomini saqlash doimiy nazarda tutilgan.

Turkistonning Zakaspiy viloyatidagi Chelekan orolidan neft qazib olinar edi. Bu yerda Birinchi jahon urushiga qadar ingliz sarmoyasi ustunlik qilgan. Keyinchalik neft qazib olish sohasidagi hukmronlik bu yerda ham "Aka-uka Nobellar" birlashmasi qo'liga o'tdi.

Chet el sarmoyasi nafaqat neft sohasiga, balki ko'mir, oltin, ozokerit, qo'rg'oshin va mis qazib olish tarmoqlariga ham kirib bordi. Xorijiy sarmoya, ayniqsa, mis qazib olish sohasidagi ishlab chiqarishga keng ko'lamda jalb etildi. Mis qazish bo'yicha birinchi aksiyadorlik jamiyati "Turkiston tog'-kon sanoati jamiyati" nomi bilan iste'fodaga tog'-kon muhandisi D.K.Mishenkov tomonidan 1897 yilda ta'sis etilgan bo'lib, mazkur jamiyat Toshkent uyezdida mis, toshko'mir ishlab chiqaruvchi zavod qurishni nazarda tutgan edi. Jamiyatning asosiy sarmoyasi 2 ming aksiyaga bo'lingan 5 mln. rublni tashkil etgan.

Chet el sarmoyasi bilan hamkorlikda ish olib borgan yana bir tashkilot "Turkiston sanoat jamiyati" yoki "Nazarov va K" bo'lib, u 1899-yilda Bryusselda notarius tomonidan guvohlar ishtirokida tasdiqlangan nizom asosida ish boshlagan. Nizomga ko'ra, uning faoliyatida Belgiyaning 27 ta sanoat va moliya jamiyatlari, birja dallollari, bankirlar va ishbilarmon doiralarning boshqa vakillari ishtirok etgan. Jamiyatning faoliyati muddati 30 yil qilib belgilangan. Uning boshqaruv ma'muriyati Bryussel shahrida joylashgan edi. Jamiyatning sarmoyasi har biri 500 frank qiymatli 3 ming aksiyadan iborat bo'lgan. Bu aksiyalardan 2 mingi A.P.Nazarovga tegishli edi. Jamiyat asosiy sarmoyadan tashqari, 1 266 853 frankli amortizatsiya sarmoyasiga ham ega bo'lgan. Shuni aytish kerakki, tashkilotning maqsadi faqat Turkistondagi foydali qazilmalarni qazib olishgina bo'lmay, balki Rossiyaning o'lkadagi savdo-sotiq, moliya, sanoat, tog'-kon zavodlari, transport va boshqa sohadagi ishlarini amalga oshirishida ko'maklashishdan iborat edi.

Jamiyatning boshqaruv tartibi Luven universitetining professori Fransua de Valk, tog'-kon muhandislari Leon Demare, Pol Le Marinel, sanoat banki direktori G.Shmits, "Milliy sanoat krediti" jamiyatining direktori Iosif Vaterkeynlar kirgan. Keyinchalik, I.Vaterkeyn "Nazarov va K" jamiyatining raisi etib ham saylangan. Hujjatlarga ko'ra, belgiyalik ishbilarmon Adolf Van de Vil jamiyatning ijrochi direktori etib tayinlangan, rus fuqarosi V.Belov esa sanoat masalalarini ishlab chiqish bo'yicha mutaxassis sifatida boshqaruv tarkibiga kirgan.

Boshqa chet el kompaniyalari tajribasida bo'lgani singari jamiyat tomonidan Turkiston o'lkasida ko'chmas mulkni sotib olish faqat o'lka boshlig'i – general-gubernator ruxsat bergan taqdirdagina amalga oshirilgan. Bunday ruxsatnomani olish uchun esa ikki yarim yildan ortiq vaqt ketgan. Jamiyatning so'nggi tugal nomi – "Turkiston sanoati anonim shirkati" "Nazarov va K" shakliga kelgan.

Bu jamiyatga 1902-yilning 2-martida Namangan uyezdining Bobodaxon volostidagi Sujtov degan joydan mis qazib olish uchun 84 desyatina maydonga ega bo'lgan ikkita uchastka ajratib beriladi. 1902-yilning sentyabridan bu yerda mis quyish zavodi ishlay boshlaydi. Zavod uchun mashinalar Belgiya va Germaniyadan, lokomobil va ventilyatorlar esa Angliyadan olib kelingan.

O'z davrida imperiyaning moliya vaziri S.Yu.Vitte Turkistonda chet el mablag'i hisobiga ishlaydigan ana shunday xususiy korxonalar ochilishini ijobiy baholagan edi. Turkiston general-gubernatori N.I.Ivanov (1901-1904-y.) ham mustamlaka o'lkaga chet el sarmoyasi jalb etilishiga o'z munosabatini bildirib, harbiy vazir A.N.Kuropatkinga (1916-1917-yillarda Turkiston general-gubernatori) bitgan maktubida shunday degan edi: "Bu yangi ish xorijiy sarmoya tufayli vujudga kelgan va oyoqqa turib olgan bo'lsa-da, ammo mamlakatimiz sarmoyadorlari unga panja orasidan qarayotganligiga afsuslar qilaman. Men istiqbolda o'lkaning tog'-kon boyliklarini qazib olish va mahalliy sanoatni rivojlantirishga xorijiy sarmoyalar oqib kelishini rag'batlantirish kerak, deb o'ylayman".

Yuqorida tilga olingan "Nazarov va K" jamiyati ko'mir qazib olish bilan ham shug'ullangan. Bu yo'nalish bo'yicha jamiyat faoliyatini quyidagi ma'lumotlarda ko'rish mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jamiyat konlarida mis qazib olish miqdori uncha katta bo'lmagan. 1906-yilga kelib, jamiyat mis qazib olish bo'yicha o'z huquqini Graf F.P.Ludenskiy, I.L.Mendroxovich, Morjitskiylarning "Sirdaryo tog'-kon sanoati ittifoqi" shirkatiga beradi.

1908-yilda "Nazarov va K" jamiyati Samarqand viloyatining Xo'jand uyezdi hududidagi ikkita konda mis qazib olishni qaytadan yo'lga qo'yadi va buning uchun ma'lum miqdorda sarmoya sarflaydi. Natijada, mis qazib olish miqdori 1908-yildagi 12,5 ming pud dan 1915-yilda 24 ming pudga yetgan. Mahalliy matbuot nashrlari bergan xabarlariga ko'ra, Parij banklaridan biri 1912-yilda "Nazarov va K" jamiyati faoliyatiga 1 mln. rubl miqdorda mablag' sarflashga rozilik bergan.

Turkiston o'lkasida mis qazib olish bo'yicha eng yirik korxonalar – Avstriya sarmoyasi ishtirok etgan "Sirdaryo sanoat jamiyati" nizomini Rossiya savdo-sanoat vazirligida tasdiqlash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan. Ushbu jamiyat bir yilda 25 ming pud ruda qazib olgan. Mazkur jamiyat mis eritish zavodi va saralash fabrikasi qurilishiga katta mablag' sarflaydi. Ushbu korxonalar uchun zarur bo'lgan uskunalarni nemis tadbirkori Gumboldning Kyoln shahridagi zavodlari yetkazib bergan. Yangi texnologiya tufayli 1909-yilda 160 308 pud mis ruda qazib olingan. Navqot konidan esa 520 ming 400 pud mis qazib olingan.

Shunisi qiziqki, 1911-yilga kelib bu jamiyat Turkistonda ishlab turgan korxonalar ro'yxatida uchramaydi. O'rganilgan arxiv hujjatlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, aslida mazkur jamiyat ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qo'shimcha xorijiy sarmoyalarni jalb etishga muvaffaq bo'lgan. Shu bilan birga, jamiyat o'z nizomiga o'zgartirishlar kiritishga harakat qilgan, mazkur masala bo'yicha Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov (1909-1913-yillar) hamda Peterburgdagi hukumat amaldorlari bilan yozishmalar olib borgan. Biroq oxirgi natija shu bo'lganki, jamiyat o'zining mis rudasi qazib olish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini kengaytirish uchun ijobiy natijalarga erisha olmagan.

1908-1910-yillarda "Novikov va K" jamiyati Namangan uyezdidagi Supatog' degan joydan mis qazib olgan. 1908-yilda mazkur jamiyat tomonidan 153 ming 584 pud, 1909-yilda 31 ming 250 pud, 1910-yilda 42 ming 400 pud mis rudasi qazib olingan. 1911-yilga kelib bu jamiyat ham o'z faoliyatini to'xtatgan.

XIX asrning 90-yillari oxirida O'rta Osiyodagi oltin qazib olish sanoatida ham xorijiy sarmoyalarni olib kirilishi kuzatilgan.

Oltin qidirish va uni qazib olish bilan shug'ullangan jamiyatlar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar 1870-yillarga o'g'ir[28].

1903-yil 27-iyulda tog'-kon muhandisi A.I.Novikov, qurilish bo'yicha R.M.Mitt va yo'l muhandisi A.A.Nanderning xabar berishicha, "Turkiston neft ishlab chiqaruvchilar jamiyati" tuzilgan. 1905-yil neft ishlab chiqaruvchi jamiyat zavodi "Rishton" tashkil etilib, unga L.Verier va geolog Stepanov boshchilik qilgan[29].

Turkistonda neft qazib chiqarishga alohida qiziqish bilan qaragan Moskvaning “Vladimir Alekseev” firmasi Qo‘qon uyezdidagi Selroxo, Konibodom konlariga burg‘ulash uskunalari olib keltirgan. 1906-yil Turkistonda Orifxo‘ja Azizxo‘jaev, N.I.Borovskiy, yo‘l muhandisi N.I.Burxonovskiy va tog‘-kon muhandislarining rafiqlari Z.Ya.Kurdyumova hamda O.A.Kashkinalar “Bitum” neft qazib oluvchi jamiyatini tashkil qildilar. Ammo, tez orada tog‘-kon muhandisi D.V.Kurdyumov va K.N.Kashkin Turkistondan o‘z vatanlariga ketganlar va natijada “Bitum” jamiyati tugatilgan. 1908-yil neft burg‘ulovchi “Santo” aksionerlik jamiyati tuzilganligi haqida xabar beriladi[30]. “Turkestantskie vedomosti” gazetasining boshqa bir sonida ushbu jamiyat o‘zining neft solingan sisternalarini temir yo‘lining “Melnikova” stansiyasi orqali jo‘natishi, neftga buyurtmalarni ham o‘sha joyda qabul qilishi haqidagi e‘lon berilgan[31].

Turkiston hududidan qazib olingan neft va neft mahsulotlari Boku va boshqa hududlardan olingan xom ashyolarga ko‘ra sifatli bo‘lsa-da, tog‘-kon sohasiga oid mutaxassislar, ularning zamonaviy bilimlari yetishmasligi tufayli konchilik ishlari oqsagan.

1897-yil Buxoro hukumati tog‘-kon muhandisi P.A.Joravko-Pokarskiy bilan Boljuvon bekligidagi Safeddara oltin konida ishlar olib borish uchun shartnoma tuzgan. 1904-yil 12-martga oid hujjatda ham “Buxoro oltin ishlab chiqaruvchi jamiyat nizomining tasdiqlanishi to‘g‘risida”[32] so‘z boradi. Muhandis P.A.Joravko-Pokarskiy avvaliga ajnabiy Rikmers degan shaxs bilan, so‘ngra esa Rossiya hududida istiqomat qilish guvohnomasiga ega bo‘lgan va Rossiya fuqaroligini qabul qilish to‘g‘risidagi hujjatlarining rasmiylashtirilishini kutayotgan fransuz Gaston Siras bilan shartnoma tuzadi. Turli mahkamalar o‘rtasidagi yozishmalardan so‘ng, 1900-yilda Boljuvon bekligida ish boshlashga ruxsatnoma olingan. Shundan so‘ng Gaston Siras oltin bor hududlarda qidiruv va ekspluatatsiya ishlarini amalga oshirishga ruxsat beruvchi guvohnoma oladi. P.A.Joravko-Pokarskiy ixtiyorida esa ishlayotgan korxonadan tomonidan ko‘riladigan ziyonlar uchun hech qanday mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olmagan holda, har yilgi sof daromaddan 15 foizini olish huquqi saqlanib qolingan. Gaston Siras keyinchalik P.Joravko-Pokarskiy konsepsiyasi asosida “Siras va K” tog‘-kon sanoati aksidorlik jamiyatini tashkil etadi.

Fransiya fuqarosi, tog‘-kon muhandisi E.G.Levat ham 1902-yil Turkistonda tog‘-kon ishlari bilan shug‘ullanishga urinib ko‘radi. Uning general-gubernator nomiga yozgan arizasida quyidagilarni o‘qish mumkin: “Buxoro va Turkistonda ilmiy va tog‘-kon tadqiqotlari o‘tkazish uchun fransuz ekspeditsiyaining bosh muhandisi sifatida xizmat safariga kelganimda bu joylarda ko‘plab qazilma boyliklar – neft, toshko‘mir, oltin mavjudligidan boxabar bo‘ldim”. Arizaning davomida oltin va boshqa foydali qazilmalarni qidirishga ruxsat berilishini so‘ragan va kelajakda o‘z shaxsiy jamg‘armasi hisobidan tashkil etiladigan aksiyadorlik jamiyati xususidagi iltimosini bayon etgan.

Bosh shtab boshlig‘i Saxarov 1902-yilning sentyabrida Harbiy vazir A.N.Kuropatkinning Levatning “Turkiston o‘lkasida, Buxoro amirligi hududida tog‘-kon sanoati bilan shug‘ullanish huquqini berish to‘g‘risidagi” rasmiy iltimosini rad etish zarur, deb hisoblashini xabar qiladi. Shu tariqa, xorijiy sarmoyaning Turkiston oltin qazish sanoatiga kirib kelishiga yo‘l qo‘yilmagan edi.

Umuman, ko‘pgina manbalarning dalolat berishicha, o‘lkada XX asr boshlarida yer osti boyliklarini qazib olish bo‘yicha jamiyatlar soni ko‘payib borgan. Bu boradagi eng muhim yo‘nalish va yangiliklar davriy matbuot sahifalarida muntazam e‘lon qilib borilgan. Masalan, matbuot orqali e‘lon qilingan 1907-yil 16-yanvar soat kechki 19.00da bo‘ladigan Turkiston neft ishlab chiqaruvchi uyushmalarining yig‘ilishi haqidagi xabar diqqatga sazovordir. Shuningdek, gazetada “Rishton” neft ishlab chiqaruvchi ochiq aksionerlik jamiyati ish faoliyatidagi o‘zgarishlar, guvohnoma muddati to‘xtatilganligi, uyushmaning faoliyatini davom ettirish uchun yangi hissadorlar jalb etilishi lozimligi haqidagi xabar berilgan[33].

#### **4. Xulosalar:**

Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari hududida tashkil etilgan turli jamiyatlar qatorida tog‘-kon sohasiga tegishli bir qancha aksionerlik jamiyatlari ham tuzilgan. Ushbu jamiyatlar metropoliya vakillarining o‘lka tabiiy boyliklarini istaganicha tasarruf etishi hisobiga konchilik sohasini rivojlantirish va mintaqadagi tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish evaziga mustamlakachi sarmoyadorlarning boyishiga

xizmat qilgan. Ammo, shunday bo'lsada, o'lkada tog'-kon ishlari jonlandi. Bunda xorijiy sarmoyadorlarning ta'siri sezilarli bo'ldi. Bu jamiyatlar foydali qazilma boyliklari savdosini ham tashkil qila oldi. Ammo, ular daromadi o'lkani iqtisodiy tiklashga emas, Rossiya imperiyasi iqtisodiyotiga o'z ulushini qoshdi. Turkiston o'lkasida geologiya sohasi mutaxassislarining yetishmasligi kabi jiddiy muammolar ham sohaning sekinlik bilan rivojlanishiga sabab bo'lgan.

### Иқтибослар/ Сноски/References:

1. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса: Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – Спб., 1905. – С.76; Михайлов Л. Золотопробышленность в Бухарском ханстве // Туркестанские ведомости. – 1897. – №49; Наливкин Д.В. Золото Горной Бухары и Памира //Геологический вестник.-1911.-Т.2.-Вып. 1. Семенов А.А. Средняя Азия. Очерк. – М., 1899.-2-е изд.-М., 1910. – С.96; О'sha muallif. Некоторые особенности материальной культуры прошлых эпох Средней Азии//Известия.- Вып. 3. –Ташкент, 1928. – с.11–22; О 'sha muallif.. Исторический очерк художественных ремесел Узбекистана //Литература и искусства Узбекистана. – 1937. – Кн. I. – с. 112–129. (Gubarevich-Radobil'skiy A.F. Ekonomicheskii ocherk Buxari i Tunisa: Opit sravnitel'nogo issledovaniya dvux sistem protektorata. – Spb., 1905. –S.76; Mixaylov L. Zolotopromishlennost v Buxarskom xanstve//Turkestanskije vedomosti. –1897 – № 49; Nalivkin D.V. Zoloto Gornoy Buxari i Pamira //Geologicheskij vestnik.-1911.-Т.2.-Vip. 1. Semenov A.A. Srednyaya Aziya. Ocherk. – М., 1899.-2-е изд.-М.,1910. – S.96; О'sha muallif. Nekotorie osobennosti materialnoy kulturi proshlix epoch Sredney Azii//Izvestiya.- Vip. 3. –Tashkent, 1928. – s.11–22; О 'sha muallif.. Istoricheskiy ocherk xudojestvennix remesel Uzbekistana //Literatura i iskusstva Uzbekistana. – 1937. – Кн. I. – s. 112–129.)
2. Романовский Г.Д. Геологический характер Сарваданского буроугольного образования в Зеравшанском округе. // Записки императорского С. Петербургского минералогического общества. – СПб. 1882. – С.276-296. (Romanovskiy G.D. Geologicheskij karakter Sarvadanskogo burougol'nogo obrazovaniya v Zeravshanskom okruge. // Zapiski imperatorskogo S. Peterburgskogo mineralogicheskogo obshchestva. – SPb. 1882. – S.276-296.)
3. Дорошин П.П. Геологические заметки о полуостров Мангышлак. // Горный журнал №1. – СПб. 1871. – С.61-113. (Doroshin. Geologicheskije zametki o poluostrrov Mangishlak. // Gornij jurnal №1. – SPb. 1871. – S.61-113.)
4. Барбота де-Марни Н.И. О геологических изследовонях в Аму- Даринском крае. // Известия Императорского Русскаго Географического Общества Том XI. – СПб. 1876. – С. 68-86. (Barbota de-Marni N.I. O geologicheskix izsledovonyax v Amu- Darinskom krae. // Izvestiya Imperatorskogo Russkago Geograficheskago Obshchestva Tom XI. – SPb. 1876. – S. 68-86.)
5. Коншин А.М. Путевые заметки о Каракумских песках. 1883г. //Известия Императорского Русскаго Географического Общества. Том XIX – СПб. – 1883; о'sha muallif. Сарыкамьшский озерный боссейн и Заподный Узбой. 1884г. Том XXI - 1885; о 'sha muallif. Древнем течении Амудары. – СПб – 1897. – 250 с. (Konshin A.M. Putevie zametki o Karakumskix pesках.1883g. //Izvestiya Imperatorskogo Russkago Geograficheskago Obshchestva. Tom XIX – SPb. – 1883; О'sha muallif. Sarikamshskiy ozerviy bosseyyn i Zapodniy Uzboy. 1884g. Tom XXI - 1885; О'sha muallif. Drevnem techenii Amudari. – SPb – 1897. – 250 s)
6. Каулбарс А.В. Низовья Аму-Дарьи. Описанные по собственным изследованиям в 1873 г. //Записки императорского русского географического общества том IX, – СПб. 1881.- 576 с.; О'sha muallif. Древнейшие русла Аму-дарьи. – СПб.- 1887. – 127с. (Kaulbars A.V. Nizovya Amu-Dari. Opisannie po sobstvennim izsledovaniyam v 1873 g. //Zapiski imperatorskogo russkogo geograficheskogo obshchestva tom IX, – SPb. 1881.-576 с.; О'sha muallif. Drevneyshya rusla Amu-dari. – SPb.- 1887. – 127s.)
7. Обручев В.А. Закаспийская низменность. Геологический и орографический очерк по данным собранном во время экскурсий в 1886-1887-1888 годах.//Записки императорского русского географического общества том XX, №3 – СПб.- 1890г.- 270с. (Obruchev V.A.

Zakaspiyskaya nizmennost. Geologicheskii i orograficheskii ocherk po dannim sobrannom vo vremya ekskursiy v 1886-1887-1888 godax. // Zapiski imperatorskogo russkogo geograficheskogo obshchestva tom XX, №3 – SPb.- 1890g.- 270s.)

8. Гедройц. Предварительный отчёт о геологических исследованиях на сухих руслах Аму-Дари. // Известия Императорского Русского Географического Общества Том XVIII. В. 2. – СПб. 1890. - С. 1-84. (Gedroys. Pridvaritelniy otchyot o geologicheskix izsledovaniyax na suxix ruslax Amu-Dari. // Izvestiya Imperatorskogo Russkogo Geograficheskogo Obshchestva Tom XVIII. V. 2. – SPb. 1890. - S. 1-84.)

9. Мушкетов И.В. Краткий очерк геологического строения Закаспийской области. С геологической картой. Записки императорского С. Петербургского минералогического общества. Ч.28. – СПб. 1891.- С. 345-391. (Mushketov I.V. Kratkiy ocherk geologicheskogo stroeniya Zakaspiyskoy oblasti. S geologicheskoyu kartoy. Zapiski imperatorskogo S. Peterburgskogo mineralogicheskogo obshchestva. CH.28. – SPb. 1891.- S. 345-391.)

10. Карелин Г.С. Путешествия по Каспийскому морю. Записки императорского русского географического Общества Том XVIII. В. 2. – СПб. 1890. - С. 1-84. (Karelin G.S. Puteshestviya po Kaspiyskomu moryu. Zapiski imperatorskogo russkogo geograficheskogo Obshchestva Tom XVIII. V. 2. – SPb. 1890. - S. 1-84.)

11. Вебер В.Н. Краткий предварительный отчёт о поездке в Фергану в 1902 году. // Известия . Геол. Ком-та. Т. XXII.- СПб.,1903.; о 'sha muallif Полезные ископаемые Туркестана (с картой) . // Поверхность и недра. №4. – СПб. 1917. – с. 145-150. Рагозин А.В. Нефтяные предприятия Ферганской области. // Вестник финансов, Промышленности и торговли. 1908. №13. (Туркестанский сборник Т. 465. – С. 162-166) ; Калицкий К. П. Майли-Сай. // Изв. Геол. Ком- та. Т. XXX III. – СПбБ 1914. С. 761-802; о 'sha muallif Нефтяные месторождения Шорсу- Камышбаши. // Тр. Геол. Ком- та.- Нов. Сер. Вып. 133. – СПб. 1915: о 'sha muallif Чимионская нефть в Фергане. Нефтяное дело. 1904. № 22. – С. 2136-2139; Отчёт по развиту Туркестанского края, произведенный по высочайшему повелению сенатором графом К.К. Паленом. Вып. 1-19. – Спб. 1909-19011. / горное дело. Вып. 17. 1910. – 516 с. ; Верховский Н.В. Туркестан в районе Ташкентской железной дороги и грузы этой дороги. – СПб.,1910; Губаревич - Радобыльский А. Значение Туркестана в торговле России с сопредельными странами Азии. – СПб., 1912; Масальский В.И. Россия. Т. XIX. Туркестанский край. – Спб., 1913; Гулишамбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района. Обслуживаемого средназиатской железной дороги. Ч. 1. – Ашхабад. 1913; Оглоблин В.Н. Промышленность и торговля Туркестана. – М. 1914; Корзухин А. Горное богатство. Азиатская Россия. Т. 2. – СПб., 1914. Запорская В.В. и Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края.- Пгр., 1915; Леонов Г. Благородные металлы в Туркестанском крае и их добыча. Известия Туркестанского Отдела Русского Географического Общества. – Ташкент 1918. Т. XIV. Вып. IV – С 21-34; Падуровский А. Горная промышленность Туркестана, ее развитие и современное состояние. Кн. I. // Военная мыл. 1921. ( янв.-апр.) – С. 134-157; Иванов П.П. К истории развития горного промысла в Средней Азии. Краткий исторический очерк. – Л. , - М., 1932 – 80с.; Лимарев И. Угольная промышленность Средней Азии во втором пятилетии. – М., - Т., 1935. (Veber V.N. Kratkiy predvaritelniy otchyot o poezdke v Ferganu v 1902 godu. // Izvestiya . Geol. Kom-ta. Т. XXII.- SPb.,1903.; о 'sha muallif Poleznie iskopaemie Turkestana (s kartoy) . // Poverxnost i nedra. №4. – SPb. 1917. – s. 145-150. Ragozin A.V. Neftyanye predpriyatiya Ferganskoy oblasti. // Vestnik finansov, Promishlennosti i trgovli. 1908. №13. (Turkestanskiy sbornik Т. 465. – S. 162-166) ; Kalitskiy K. P. Mayli- Say. // Izv. Geol. Kom- ta. Т. XXX III. – SPbB 1914. S. 761-802; о 'sha muallif Neftyanye mestorojdeniya SHorsu- Kamishbashi. // Tr. Geol. Kom- ta.- Nov. Ser. Vip. 133. – SPb. 1915: о 'sha muallif CHimionskaya neft v Fergane. Neftyanoe delo. 1904. № 22. – S. 2136-2139; Otchyot po razvitiu Turkestanskogo kraya, proizvedenniy po visochayshemu poveleniyu senatorom grafom K.K. Palenom. Vip. 1-19 . – Spb. 1909-19011. / gornoe delo. Vip. 17. 1910. – 516 s. ; Verxovskiy N.V. Turkestan v rayone Tashkentskoy jeleznoy dorogi i gruzi etoy dorogi. – SPb.,1910; Gubarevich - Radobilskiy A. Znachenie Turkestana v trgovle Rossii s sopredelnimi

stranami Azii. – SPb., 1912; Masalskiy V.I. Rossiya. T. XIX. Tutsrkestanskiy kray. – Spb., 1913; Gulishambarov S.I. Ekonomicheskiy obzor Turkestanskogo rayona. Obslujivaemogo srednaziatskoy jeleznoy dorogi. CH. 1. – Ashxabad. 1913; Ogloblin V.N. Promishlennost i torgovliya Turkestana. – M. 1914; Korzuxin A. Gornoe bogatstvo. Aziatskaya Rossiya. T. 2. – SPb., 1914. Zaporskaya V.V. i Aleksander K.A. Promishlennye zavedeniya Turkestanskogo kraya.- Pgr., 1915; Leonov G. Blagorodnie metalli v Turkestanskom krae i ix dobicha. Izvestiya Turkestanskogo Otdela Russkogo Geograficheskogo Obshchestva. – Tashkent 1918. T. XIV. Vip. IV – S 21-34; Padurovskiy A. Gornaya promishlennost Turkestana, ee razvitie i sovremennoe sostoyanie. Kn. I // Voennaya mil. 1921. ( yanv.-apr.) – S. 134-157; Ivanov P.P. K istorii razvitiya gornogo promsla v Sredney Azii. Kratkiy istoricheskiy ocherk. – L. , - M., 1932 – 80s.; Limarev I. Ugolnaya promishlennost Sredney Azii vo vtorom pyatiletii. – M., - T., 1935. )

12. Полицук В.Р. Судьба Профессора И. Я. Башилова. / old.ihst. ru/projects/sohist/books/os352-366.pdf . (Polishuk V.R. Sudba Professora I. YA. Bashilova. / old.ihst. ru/projects/ sohist/books/os352-366.pdf )

13. Горно-рудная промышленность урана // profbekckman.narod.ru/uran.files. (Gornorudnaya promishlennost urana // profbekckman.narod.ru/uran.files)

14. Горно-рудная промышленность урана // profbekckman.narod.ru/uran.files. (Gornorudnaya promishlennost urana // profbekckman.narod.ru/uran.files).

15. O‘zR MA I-41. yig‘ma jild 1, hujjat.- 72. – 79 varaq.

16. O‘zR MA I -17, yig‘ma jild -1, D. 13307.

17. O‘zR MA I -17, yig‘ma jild -1, D. 13307, -79 varaq. (1 modda)

18. O‘zR MA I -17, yig ‘ma jild -1, D. 13307, 80 – varaq (8 modda)

19. O‘zR MA I -17, yig ‘ma jild-1, D. 13307, 80 – varaq (3-modda)

20. Russko-uzbekskiy slovar. 2 tom. – Toshkent, 1984. – S. 289.

21. Туя-Муюнский радиевый рудник// <http://metal-archive.ru/stati/10754-tuya-muyunskiy-radievyy-rudnik.html>. (Туя-Муюнский радиевый рудник// <http://metal-archive.ru/stati/10754-tuya-muyunskiy-radievyy-rudnik.html>)

22. Полицук В.Р. Судьба Профессора И.Я.Башилова. / old.ihst. ru/projects/sohist/books/os352-366.pdf ( p. 354). (Polishuk V.R. Sudba Professora I.YA.Bashilova. / old.ihst. ru/projects/ sohist/books/os352-366.pdf ( r. 354)

23. Полицук В.Р. Судьба Профессора И.Я.Башилова. / old.ihst. ru/projects/sohist/books/os352-366.pdf. (Polishuk V.R. Sudba Professora I.YA.Bashilova. / old.ihst. ru/projects/ sohist/books/os352-366.pdf)

24. O‘zR MA I. - 1, yig ‘ma jild . - 17. D. 1122

25. O‘zR MA I-1, yig ‘ma jild-17, D. 991.

26. O‘zR MA I-1, op-17, D. 991.

27. O‘zR MA I-1 F. 1 D. 5555.

28. O‘zR MA I -17, op-1, D. 13307.

29. Тау. Горная промышленность Туркестана. // Туркестанские ведомости. 1910. №151. (Тау. Gornaya promishlennost Turkestana. // Turkestanskie vedomosti. 1910. №151.)

30. Тау. Горная промышленность Туркестана. // Туркестанские ведомости. 1910. №151. (Тау. Gornaya promishlennost Turkestana. // Turkestanskie vedomosti. 1910. №151.)

31. Туркестанские ведомости. 1910. № 144 (Turkestanskie vedomosti. 1910. № 144.).

32. O‘zR MA I- 1-ro‘ухat, 13- yig‘ma jild, 487-ish, 1-3 varaqlar.

33. Туркестанские ведомости. 1907. № 1. (Turkestanskie vedomosti. 1907. № 1).

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадqiqот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000